

«UCH AVLOD UCHRASHUVI» MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIR BO'LIB O'TDI

Nuroniyalarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, yangi avlodga ta'lim-tarbiya, mehr berish xalqimizga xos ezgu fazilatlar sirasiga kiradi.

Asrlar mobaynida tobora sayqallanib, ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan bunday qadriyat va an'analar, o'zaro mehr-oqibat tushunchalari bugungi kunda ham g'oyatda qadrlanadi. Oilaviy qadriyatlarning uзвиy bir qismi bo'lgan bu kabi udumlarni avaylab-asrash borasida xayrli tashabbuslar amalga oshirib kelinmoqda.

Ezgu an'anaga aylanib borayotgan "Uch avlod uchrashuvi" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri Toshloq tumanida ham tashkillanmoqda.

9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "O'zbekiston-inson qadri ulug'langan yurt" shiori ostida Toshloq tibbiyot birlashmasi va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan halqimiz sog'ligini tiklash, yurt ravnaqi, tinchligi, yosh avlodga ta'lim-tarbiysi yo'lida fidokorona mehnat qilgan keksalar, o'rta avlod vakillari hamda yoshlari ishtirokida Quvasoy shahrida joylashgan Axmad Al-Farg'oniy dam olish uyida 80 nafar faxriylar, 120 nafar yoshlari ishtirokida "Uch Avlod uchrashuvi" tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda sportning ommaviy turlariga xodimlarni kengroq jalg etish maqsadida yoshlari o'rtasida sportning shaxmat, shashka, stol tennisi, voleybol turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, g'oliblarga tibbiyot birlashmasi va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2024-05-06 13:12:38